

«Foydali» tarif rejasi

1. «Foydali» – Kompaniyaning Prepaid tizimi abonentlari uchun hududiy tarif rejasi bo‘lib, shartlari quyidagicha:

Tarif rejasining nomi	Foydali
Oylik abonent to‘lovi	28 000 so‘m
Oylik internet-trafik limiti	13 GB
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi qo‘ng‘iroqlarning oylik limiti	Cheksiz*
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti	1500
Limitlarni tekshirish	*100# – daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari

* *Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.*

2026-yil 3-fevraldan boshlab «Foydali» tarif rejasining oylik abonent to‘lovi 28 000 so‘mni tashkil etadi.

Shu bilan birga, o‘zgartirishlar kiritilgan sanada 55 yoshdan katta ayollar va 60 yoshdan katta erkak abonentlar uchun «Foydali» tarif rejasining oylik abonent to‘lovi 23 000 so‘m miqdorida saqlanib qoladi.

Narxlash

Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash:	
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so‘m
1 MB Internet narxi	25 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so‘m
Xalqaro SMSlar	1 500 sum

2. Foydali tarif rejasi yangi ulanishlar va o‘tish uchun mavjud emas.

3. Oylik abonent to‘lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish sanasi oylik davrda oylik abonent to‘lovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Hisob manfiy holatda bo‘lsa yoki unda tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovining yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.

- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmaguncha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi darhol yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab bir oylik oraliqda amalga oshadi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, fevral oyining 28/29-sanasida yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).

4. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi shartlariga ko'ra oylik limitlar belgilangan kunidan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi. Tarif rejasiga ko'ra abonent to'lovi **o'z vaqtida to'lansa**, oylik limitlarning qoldiqlaridan yangi davrda ham foydalanish mumkin bo'ladi va ular sarflab tugatilguniga yoki amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi.

- Agarda oylik abonent to'lovi o'z vaqtida yechilmasa, u holda limitlarning oldingi hisob-kitob davrida ishlatilmay qolgan qoldiqlari bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Raqam Bloklangan holatida tarif rejasini almashtirib bo'lmaydi.

- Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oylik internet-to'plamlar shartlariga ko'ra limitlar qoldiqlaridan toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa).

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi Yangi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- Abonent to'lovi belgilangan sanada o'z vaqtida yechilgan va tarif rejasiga ko'ra yangi davr uchun limitlar belgilangan taqdirda, agar oldingi davrdan qolgan limitlar mavjud bo'lsa, ular navbatdagi bitta davrga ko'chirib o'tkaziladi va ular sarflab tugatilguniga yoki amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

- Boshqa ochiq tarif rejalariga "Foydali" tarif rejasidan o'tishda, oldingi tarif rejasi bo'yicha avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval *100#, USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanguniga qadar narxlash limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

5. "Foydali" tarif rejasi abonentlari "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturidan "Qadrli" toifasida foydalana oladilar.

- "Foydali" tarif rejasi abonentlari uchun "U+" sodiqlik dasturi amal qiladi.

6. Tarif rejalar shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning

axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

7. «O'zbektelekom» AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi:

https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin

https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

8. Tarif rejalar doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

9. «Foydali» tarif rejasi abonentlari uchun «Raqamni saqlab qolish», Yangi oylik internet to'plamlari, Metroda Ucell cheksiz internet to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.

10. «Foydali» tarif rejasi abonentlari uchun «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, «Tungi internet», «Soatbay internet» hamda «Oylik 4G internet-to'plamlar» amal qilmaydi.

11. «Foydali» tarif rejasi abonentlari boshqa ochiq tarif rejalariga o'tishlari mumkin.

12. Froyd ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

«Foydali» tarif rejasi abonentlari uchun «Restart» xizmatining shartlari

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.

2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.

3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.

4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi doirasida to'liq oylik limitlar belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi. Oylik abonent to'lovining yechilishi va oylik limitlarning belgilanishi shartlari abonentning tarif rejasi shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.

6. «Restart» xizmati samarali faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.

7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin).